

ISAJON SULTON IJODI VA O'ZBEK ROMACHILIGI*Normamatova Mahliyo Azmiddin qizi,**Samarqand 35-maktab o'qituvchisi,**Turdiyeva Gulhayo Ismat qizi**Samarqand shahar Kimyo va biologiya fanlariga
ixtisoslashtirilgan 14-Tayanch maktabi o'qituvchisi*

Isajon Sulton romanlarida ham badiiy – estetik talqinni o'ziga xos tarzda aks ettirilganligini kuzatamiz. Inson ruhiy olamini badiiy idrok etishning yangicha o'ziga xos talqini sifatida qayd etilmoqda. Adib romanlarida polifonik tasvir, ya'ni ko'p qirralilik, ko'p timsollilik, ko'p ovozlilik roman janrining yangi badiiy imkoniyatlari hamda insonning murakkab tabiatini badiiy talqin etish bilan izohlanmoqda. Polifonik badiiy talqin zamirida ko'p qatlamlilik, ko'p ovozlilik, ko'p ma'noilik inson obrazini mukammalroq ochib berishga xizmat qilar ekan, tabiiyki, badiiy polifoniya nafaqat inson hayotining murakkabligini, balki roman janr imkoniyatlarini ham kengroq namoyon qiladi. Keying davr romanchiligiga xos bo'lgan bunday tasvir usuli jahon romanchilik an'analari va ijodiy imkoniyatlari ta'sirida taraqqiy etar ekan. Umumbashariy g'oyalar talqinida eng murakkab va mukammal badiiy talqin uslublarga murojaat etadi. Polifonik romanda sujet va kompozitsiya qurilishi, badiiy qahramon va unga nisbatan muallif munosabati, romanda g'oya talqini, muallif obrazi kabi badiiy unsurlarga an'anaviy romanlarga nisbatan o'ziga xos tarzda farqlanishi kuzatilmoqda.

Keyingi yillar adabiyotida chinakam ijod qilish, haq so'zni, haqiqatni aytish keng qamarovda rivojlandi. Shuning uchun O'zbekiston qahramoni Abdulla Oripov «Adabiyot va zamon» maqolasida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: «Sho'rolar davrida milliy qadriyatlarimiz, moziydagi qahramonlarimiz qariyb qalamga olinmas, olinganda ham ular sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan tahlil etilar, qoralanardi, xolos. Diniy e'tiqod esa butunlay manfiy tushunchaga aylantirgan edi. Bir yoqlamalilik, yuzakilik adiblarimizni bir xil ovozda, bir xil ohangda kuylashga o'rgatib qo'ygan edi. Faqat baxtni va saodatni kuylash, aslida yo'q yorqin kelajakni ulug'lash odat tusiga aylangandi. Inson hayotidagi turli iztiroblar, ziddiyatlar, mag'lubiyatlar qatag'on mavzu hisoblanar, ular aslo rag'batlantirilmas edi» [1, 5-bet].

Ijodkorlar olam, odam haqida avvalgidan o'zgacharoq fikrlash mumkinligini his eta boshladilar va bu yo'lda jiddiy izlanishlar maydonga keldi. Shu nuqtai nazardan Isajon Sulton ijodi ham milliy adabiy an'alarimizni va jahon adabiyotidagi yetakchi tamoyillarni o'z uslubi orqali namoyon qildi. Bahorida bo'liq tuprog'i uyg'onib, anvoyi o't-o'lanni jo'shtirib yuboradigan shu so'lim va sokin maskanda tug'ilganman. Erta sahar non yopish uchun tandirga langillatib o't yoqilgani, bo'zarayotgan tong

yorug`ida olovning qirmizi shu`lasi o`ynashlari, shamolli kunlarda to`n kiyib, belbog` bog`lagan kishilarning ko`chalarda to`p-to`p turishlari xotiramda o`yilib qolgan. Ulug`lar qoshida odob saqlash, aytar so`zini o`ylab tilga chiqarish, katta-yu kichikka qanday muomala qilish kerakligining ilk saboqlarini shu qishloqda olganman. Muhtasham o`zbekona madaniyatning mo`jaz va uzoq makoni bo`lib ko`rinadi ko`zimga Avazboy. Hamma bolalar kabi yer chopar, g`o`zapoya qirqar, xullas, tirikchilik tashvishiga kirib borayotgan o`smirlardan biri edim-u dunyoning qayerlaridadir ro`y berayotgan voqealarga ham juda qiziqardim. Sakson uchinchi yilda o`rta maktabni oltin medal bilan tugallab, Toshkentga, universitetga kelganman. Yozuvchilikka jiddiy qiziqish davri shunda boshlangan, shekilli. Talabaligimda birin- ketin hikoyalarim e`lon qilindi, shu tariqa ijod dunyosining sir-u sinoatlari bilan tanisha boshladim», - deb yozadi adibning o`zi.

Ijodkor bo`lish orzusida hayotni zimdan, tiyrak nigoh bilan kuzatish, qolaversa «yaxshi o`qish» lozimligini ancha ilgari his qilgan adib doimo o`z ustida jiddiy izlanishlar olib boradi. Adibning ilk asarlaridan biri «Munojot» (1990)dir. Adabiy hodisalar o`z-o`zidan paydo bo`lavermaydi. Bunga ham ichki bir ehtiyoj mahsuli sifatida qarash to`g`riroq bo`ladi. Keyinchalik adibning "Boqiy darbadar", "Ozod" romanlari noan'anaviy romanlar sifatida maydponga keldi. Bu romanlar jahon adabiyotining nodir durdonasiga aylangan "Alximik" asari kabi falsafiy xarakterga egadir. Undagi voqelik ham bitta yigitning xazinani izlab yo`lga chiqishi va bu izlanishlarida turli xil taqdirlarni boshidan kechirishi hikoya qilinadi. Isajon Sulton asarlarida esa «milliy qadriyat» va «milliy ruh»ning singdirilishi, o`sha kayfiyatga murojaat qilishi kitobxonni o`ziga rom qiladi. Bu romanlarning tasvir usuli o`ta murakkab xarakter kasb etadi. Shuning uchun har ikki romanda ham asar qahramonlarining botiniy olamidagi ziddiyatlar, o`zlikni anglash yo`lidagi tinimsiz harakatlar, turli xil ramziy obrazlar asosida yoritiladi. Yozuvchining «Boqiy darbadar» romanidan o`rin olgan tarixiy hikoyalar, zamonaviy mavzudagi hikoyalar ham o`ziga xos uslub mahsulidir. «Adabiyotdagi an'anaviy mavzularni yangicha badiiy talqin qilishi bilan ajralib tutradigan ijodkorlardan biri Isajon Sultondir... hozirgi adabiy jarayonning o`ziga xos yutuqlaridan biri bo`ldi desak, yangilashmagan bo`lamiz» [2, 97-bet].

Yozuvchi asarlari adabiyotshunoslar tomonidan yuqori baholanganligining asosiy sababi ramzlar falsafasi orqali odam va olamni tasvirlaganligi bilan ajralib turadi. Unda bitta jihat kishini o`yga toldiradi: inson qismatining biz bilmagan, ko`rmagan turfa taqdirlari bor ekanki, uni his qilib, quvonch-u tashvishi bilan «yonib-yashagan» adib talqinlari haqiqatdan ham umuminsoniy muammolarni haqqoniy yoritib bergan degan xulosaga kelamiz. Masalan, «Qatl uchun tepalikdan maxsus joy tayyorlab qo`yilgan, mahkumninig oyoqlariga, qo`llariga yelkasi aralash zil – zambil kishanlar urilgan bo`lib, zalvoridan juda qiynalib qadam tashlar, hansirab nafas olar, tevarakdagi odamlarning hazil – mazax aralash aytgan so`zlari qulog`iga goh kirib, goh

eshitilmay qolar edi. Qizil dengizning chuchuk suvli oqimlari o'zaro bino bo'lgan oq bulut parchasi ana shu mahkumning boshi uzra soya tashlab kelayotgan edi. Mahkum – bir Muborak Kishi edi. Kim bilsin, balki hozir unga iloh farishtalari yordamga kelgan-u cho'yan kishanlarning og'irligini balki sezmayotgandir ham? Tevarakdagi olamon «Qani sening xudoying? Nega u senga madad bermayabdi?!» deb qichqirar va kular edi. Kulayotgan bu badbaxt olamon orasida bir etikdo'z ham bor edi» [3, 5-6-betlar].

Yuqoridagi parchada noan'anaviy shakldagi obrazlar mavjud bo'lib, hayotni ramzlar orqali tasvirlab, ko'p ma'nolilik qatlamini olib kirgan. Mahkumning oyoqlariga, qo'llariga urilgan kishanlar og'irligidan bazo'r qadam tashlar edi. Bu xususiyatlar xuddi oldindan bashorat qilganday taa'ssurot uyg'otadi. Etikdo'zning bolalik xotiralari orqali ifodalangan tasvirlarda ham bu talqin xususiyatini kuzatamiz. Romandagi voqealar sil – silasi inson ichki olamidagi kurashlar natijasi sifatida yuzaga chiqqan. Asardagi barcha voqealar ramzlar asosida insonni tafakkur qilishga undaydi. Adabiyotshunos A. Rasulov "Akklar falsafasi" maqolasida quydaigi fikrlarni qayd qiladi: "Shakllar, qiyofalar, g'oyalar va obrazlar yaratilar ekan, tobora shiddatli tus olib borayotgan zamonaviy dunyo yana yangi ruhiy tayanvchga ehtiyoj tuya boshlagan edi. Badiiy asar xayol mahsuli, xayol esa kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan voqea va hodisalarni oldindan jonlantirib ko'rish deganidir" [4, 406-bet].

Keyingi yillar romanchiligida inson tafakkuridagi evrilishlarni, hayotga yanada teranroq munosabatda bo'lishni, odam va olam haqidagi qarashlarni falsafiy tarzda aks ettirish yetakchilik qila boshladi. Asar syujeyidan o'rin olgan voqealar sil – silasida qahramonning ma'naviy olamini yoritilishi yetakchilik qiladi. Asardagi Etikdo'zning bolalik xotiralariga qaytishi ham bejiz emas. O'z o'tmishiga nazar solgan qahramon tafakkurdagi ziddiyatlarni yanada teranroq his eta boshlaydi. Asardagi quyidagi tasvirlarga e'tibor qarataylik: "- So'qmoqda birov ko'rindi, - dedi ayol kafti bilan ko'zini yorug'dan pana qilib. – Kim ekan – a? Ikkinchisi ham sinchiklab qaradi-da:

– Ozod ekan, - dedi.

– Yangilikni eshitdingizmi? Xotinlarning og'zida duv – duv gap: Oydin qizga baxt lolasini olib kelaman deb va'da berganmish.

– Ha-ya, Ozod ekan, - deb tasdiqladi unisi.

– Ha, eshitdim. Ammo hali yosh, novdaday o'spirin – ku, cho'qqilarga chiqa olarmikin? Rostini aytsam, to'yimizdan oldin akangiz ham menga va'da beruvdi. Shaxt bilan toqqa ketib, quppa – quruq qaytib keluvdi" [3, 10-bet].

"Ozod" romanida qayd qilingan bu tasvirlar "Boqiy darbadar" romanidagi qahramon tasviriga o'xshab ketadi, ammo ular taqdiri bir – birini to'ldirib, hayot mantig'ini anglash jarayonidagi mulohazalari mohiyatan farq qiladi. Shuning uchun har ikki romandagi tasvirlar turli ramzlar orqali aks ettirilganligini kuzatamiz. Bolalik xotiralarini yodga olish "Boqiy darbadar"da ifodalangan bo'lsa, lola izlab chiqish, hayot mohiyatini anglash uchun

kurashish "Ozod" romanida badiiy talqin etilganligini, adib ramzlar orqali hayotiy va inson tafakkuridagi muammolarni talqin etgan. "Boqiy darbadar" romanidagi Etikdo'z taqdiri o'quvchini mulohaza yuritishga undaydi. O'sha bolalik yillarini, unda yuz bergan voqealarini uzoq yillar unutib yubordi-yu, nimagadir, o'sha kuni, o'sha lahza yana botiniy olamda qayta tiklandi. Buning boisini o'zi ham anglay olmasdi. " – Siz kimsiz, ota? – deb so'radi bolakay. – Mening otim – Hazrat, - dedi chol. Vaqt soati kelib, gaplarimni hali yana eslaysan, bo'tam" [3, 9-bet]. Bu fikrlar yillar davomida xotirasidan ko'tarilgan bo'lsada, ammo keyinchalik yana yodga oladi. Buning sababini o'zi ham bilmasdi [5,44-bet].

Xuddi nimadir ro'y berayotganday atrofga alanglab qaraydi, chunki bolaligida adir yonida qo'y boqib yurardi. Bu voqani ko'z o'ngida namoyon qilar ekan, hazratni bundan o'ttiz uch yil oldin uchratganini, u yolg'izoyoq yo'ldan hassasini tutgancha kelib, nay yasab o'tirgan bolaning oldiga keladi. Hazrat qarasaki, daraxt shoxlarida qora chumchuqlar turar, ular oddiy qushlardan farq qilib, na don-dun terar, na sayrar, na shoxdan – shoxga uchib, qo'nar, faqat kichkina sarg'ish ko'zlarini tikkancha nimanidir sabr – toqat bilan kutishardi. O'tmishga nazar solar ekan, o'z hayotining murakkab qirralarini anglashga intiladi: «- Bu chumchuqlar ko'pdan beri shu yerdami? – deb so'radi Hazrat. Bolakay yelka qisdi. – Hmm... bugun juma oyning o'n uchinchi... – nimanidir o'ziga hisob – kitob qildi Hazrat. So'ng bolaga achinib qarab turdi-da: - O'g'lim gapimga diqqat bilan quloq sol, - dedi. – Oyning o'n uchinchi kunida, juma kuni uchib keladigan qora chumchuqlar aslida mudhish va qattol bir qarg'ishning yukini olib keladilar. Shu gapimni zinhor yodingdan chiqarma» [3, 8-bet]. Ana shu voqeani yillar o'tib yodga olar ekan qalb qaridan qandaydir bezovtalik unga azob berayotganligini anglaydi. Oradan o'ttiz uch yil o'tib, nima uchun aynan shu damda bu voqealar nima uchun xayolida jonlanganligini anglay olmas edi, bundan o'jizligini his qildi.

Oradan o'ttiz uch yil o'tadi. Negadir erta tongda qalbdagi bezovtalik o'sha xotirani xayolida jonlantiradi. O'shanda yosh bola bu gaplarni hazm qila olmagan edi. Muborak kishi aytgan bu fikrlar xayolini band qilib, hayotini ostin – ustun qila boshlagan [6, 39-bet]. Yozuvchi bu tasvirda inson tafakkuridagi bir – biriga qarama qarshi ziddiyatlarni, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashni talqin qiladi [7, 140-bet]. Etikdo'z qalbidagi kechgan ruhiy iztiroblar ma'lum bir davrga xos bo'lgan tushunchalar sifatida qaraladi.

Bu tushunchalar Etikdo'zni taqdirida qanday o'zgarish yuz berishidan dalolat edi, ammo u taqdiri azaldan darak beruvchi bu insonni juda ko'p xayolida jonlantiradi-yu, asosli xulosa chiqara olmas edi. Taqdir hukmidan qochib qutulib bo'lmasligini anglab ulgurgan edi [8, 1012-bet]. Shu o'rinda nima uchun «suv ustida bir buloq ko'z ochdi, uning suvlari sho'r suv bilan aralashmasdan» - degan tasvirlarda falsafiylik tushunchalari mujassam edi. Etikdo'z bu gaplarning mag'zini chaqa olmadi.

Adabiyotlar:

1. Oripov A. Adabiyot va zamon. Qarang: Mustaqillik davri adabiyoti. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2006.

2. Sh. Doniyorova. An'anaviy mavzuning noan'anaviy talqini. O'zbek tili adabiyoti jurnali, 2010. 5-son.
3. Isajon Sulton. Boqiy darbadar. – Toshkent, “O`zbekiston”, 2011.
4. A. Rasulov. Akslar falsafasi. Qarang: Isajon Sulton. Ozod. “Sharq”, - Toshkent, 2012. 406-bet.
5. N.A.Normamatovich. Features of Symbolic Interpretation. International Jurnal on Orange Technologies 3(3), 71-76, 2021.
6. N.A.Normamatovich. Artistic thought in the process of globalization and logical consistency. International Jurnal of social science Interdisciplinary Research. 2023.
7. N.A.Normamatovich. International Jurnal on Orange Technologies. 3(3), 71-76, 2021.
8. N.A.Normamatovich, J.Elmira. Novel thinking and artistic conflict in Shoyim Butayev's novels. International Jurnal on Orange Technologies 2 (6), 1011-1022, 2021.